

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

"Islomshunoslik" yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Tursinaliyeva Madinaxon Maqsudali qizi

Annotatsiya: Vatan – har kishining tug'ilib-o'sgan, kindik qoni tomgan yeridir. Maqolada mana shu Vatan erki, xalq ozodligi, millat hurligi, ilm-u ma'rifati uchun kurashgan, najotni ta'lim-tarbiyada bilib, yirik ma'rifatparvarlik harakatiga asos solgan va bugungi mustaqil, farovon jamiyatimiz poydevorlarini qurib ketgan jadid bobolarimizdan biri, Turkiston jadidchilik harakatining "otasi" – Mahmudxo'ja Behbudiyo to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: jadidlar, ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya, diniy va zamonaviy ilmlar, ma'rifatparvarlik, moziy, mustaqil jumhuriyat, kutubxona, teatr, jadidlar ehtiromi.

Ona Vatan! Bu shunday mislsiz ne'matki, butun yer kurrasini kezib, o'xshashini topmoq muholdek. Vatan, unga muhabbat tuyg'usi odam bolasiga qon bilan kirib, jon bilan chiqadi. Uning erki, ozod va totuvligi shu muqaddas zamin dilbandining ham halovat va baxtidir. Vatan hurligi, rivoji, gullab-yashnashi yo'lida joiz bo'lgan vaqtda uning asl farzandlari borini, jonini beradilar. Bugungi O'zbekistonning mustaqilligi, taraqqiyoti uchun fido bo'lgan jadid bobolarimizdan biri Mahmudxo'ja Behbudiyo. Borlig'ini nisor etgan ana shu oliyhimmat maqsadi haqida bobokalonimizning o'zi shunday deb aytgan: "Matlabim - arzi hunar va izhori fazl emas, ahli Vatanga qo'lumdan kelguncha bir xizmatdur"¹.

Modomiki dunyo tunga qiyoslansa, jadidlar bu zimistonda chaqnagan yulduzlar, Behbudiyo esa ularning eng nurafshon yo'lboshchisi, bepoyon dengizga o'xshatilsa, jadidlar mavjlar-u Behbudiyo to'fon, adoqsiz sahroga nisbatlansa, jadidlar karvon-u Behbudiyo to'g'ri yo'lni ko'rsatishga mushtaq sarbon, azim chinorga mengzalsa, jadidlar tana, yaproq, mevalar-da, Behbudiyo zabardast, butun

¹ Mahmudxo'ja Behbudiyo. Tanlangan asarlar. J.I. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – B. 4.

kuchni, mas'uliyatni tutib turishga fido ildiz desak, haqdir. Lekin ularning har biri qolganini to'ldirgan bir tan-u bir jon kabidirki, barchalari millat uchun jonini tikdilar.

Ma'rifatparvar, buyuk ajdodimiz Mahmudxo'ja Behbudiy sha'nida shunday haqli ta'riflar aytilganki, ulardan ba'zilarini keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir:

“Siyosiy, ijtimoiy faoliyati va bilimning kengligi jihatidan Turkistonning o'sha vaqtidagi jadidlaridan unga teng keladigani yo'q deb o'ylayman” (Fayzulla Xo'jayev).

“Mahmudxo'ja Behbudiy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida birinchi o'rnini olurga loyiq zotdir” (Hoji Muin ibn Shukrullo).

Mahmudxo'ja Behbudiy XX asr bo'sag'asidagi Turkistonning orzu-armonlaridan biri sifatida maydonga keldi. U o'z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarida faol qatnashgan eng yirik namoyandasi, yangi zamon o'zbek madaniyatining asoschisi edi. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g'oyasining yalovbardori, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi. U tariximizning g'oyat og'ir va murakkab bir davrida yashadi. XVI asrdan boshlangan inqiroz va turg'unlik, jaholat va mutaassiblik avj pardasiga chiqqan, o'zaro janjal, mahalliy urug'chilik nizolari millatni behad holdan toydirgan ediki, bu imkondan foydalanib o'lkani zabt etgan Rossiya zo'r berib, uni turg'un va tutqun saqlashga urinar edi. Mana shunday bir sharoitda millatni butunlay mahv bo'lish va Vatanni butkul g'orat etilish xavfidan asrab qolish, avlodlarni erk va ozodlik, mustaqillik ruhida tarbiyalash, ma'rifat va taraqqiyotga boshlash jadidlar nomi bilan tarixga kirgan Behbudiy boshliq fidoyilar zimmasiga tushdi. Tariximizning so'nggi yuz yildan ortiqroq davrida xalqimizning eng katta armoni bo'lib kelgan bugungi istiqbol kurtagi dastlab mana shu jadidlar ko'ksida nish urib yetilgan edi.²

Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida (hijriy 1291, 10-

² Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar// To'plovchi, so'zboshi va izohlar: B.Qosimov – 3-nashri, tuzatilgan va to'ldirilgan. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006. – B. 5.

zulhijja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida ruhoniylar oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomondan bobosi Niyozxo'ja urganchlik bo'lib, amir Shohmurod zamonida (1785-1880) Samarqandga kelib qolgan.

1894-yilda otasi imom-xatiblik bilan shug'ullanib kelgan Behbudxo'ja vafot etadi. Yosh Mahmudxo'ja tog'asi qozi Muhammad Siddiqning tarbiya va qaramog'ida o'sib voyaga yetadi. Arab sarf-u nahvini kichik tog'asi Odildan o'rganadi. 18 yoshidan qozixonada mirzolik qila boshlaydi. Darvoqe, Behbudiyning maktab-madrasa hayoti haqida ham ma'lumotlar nihoyatda kam. Uning zamondoshlari bilan bo'lgan suhbatlaridan ayon bo'ladiki, Behbudiy dastlab Samarqand madrasasida, so'ngroq Buxoroda yaxshigina tahsil ko'rgan. An'anaviy madrasa ilmini puxta egallagan Behbudiy 1915-yilda etnograf G.Andreyev savollariga javob berar ekan, madrasa tahsilini alohida tilga olgani ma'lum. Xullas, an'anaviy tahsil, so'ng esa o'z ustida qunt va sabot bilan ishlash orqali u shariatning yuksak maqomlari qozi, muftiy darajasigacha ko'tariladi.³

1899–1900-yillarda Mahmudxo'ja Behbudiy haj ziyoratiga o'tlanadi. Sakkiz oylik sayohati davrida ozodlik uchun kurash yo'llarini qidiradi. Jahonda bo'layotgan voqea-hodisalar, jumladan, milliy ozodlik harakatlari va ularning sabablari, mohiyatini millat manfaati nuqtai nazaridan tafakkur chig'irig'idan o'tkazadi. Sharqning Yevropa davlatlari mustamlakasi ostida bo'lgan boshqa mamlakatlari ahvoli haqida xabar to'plab, ularning hurriyat yo'lidagi harakatlarini o'rganadi.

1903-yili alloma tashabbusi bilan shogirdlari Siddiqiy Ajziy Halvoyi, Abduqodir Shakuriy Rajabamin qishlog'ida, Hoji Muin Xo'ja Nisbatdor mahallasida jadid maktablarini ochadilar.

Behbudiy 1908-yili "Qiroatxonayi Behbudiya" (keyinchalik "Behbudiya" nomi bilan mashhur bo'lgan) kutubxonasini ochadi.⁴ Behbudiy kutubxonaning tashkilotchisigina emas, balki undan o'rin olgan aksar kitob va risolalarning egasi

³ O'sha manba. – B. 7.

⁴ <https://jadid.uz/jadids/mahmudxoja-behbudiy/>
<https://scientific-jl.com/>

ham edi. Vadud Mahmud Abduqodir Shakuriyga bag'ishlangan maqolasida: "Behbudiy boy kutubxonaning egasi edi. 1000 jildlik kitob fondiga ega bo'lgan bu mutolaaxona barcha uchun doimo ochiq edi. O'sha vaqtlarda bu kitoblarning har biri oltin bahosida hisoblanardi. Behbudiy bu joyning binosi va boshqa xarajatlarini o'z cho'ntagidan to'lar edi", deb yozgan.⁵

Mahmudxo'ja Behbudiy 1913-yildan matbuot ishlarini yo'lga qo'yadi va shu yilning aprelidan "Samarqand" gazetasi hamda avgust oyidan "Oyina" jurnali chiqa boshlaydi. "Samarqand" gazetasi o'zbek va tojik tillarida, haftada ikki marta, dastlab ikki, so'ng to'rt sahifada chop etilgan.

Behbudiy "Risoi asbobi savod" (1904), "Risoi jug'rofiyai umroniy" (1905), "Risoi jug'rofiyoyi Rusiy" (1905), "Kitobat ul-atfol" (1908), "Amaliyoti islom" (1908), "Tarixi islom" (1909) kabi darslik va qo'llanmalar yozgan. Bundan tashqari, "Turkiston viloyatining gazetasi", "Tujjor", "Samarqand" gazetalari va "Oyina" jurnalida ko'plab maqolalari chop etilgan.⁶

Behbudiy 1911-yilda "Padarkush" dramasini yozdi. Bu birinchi o'zbek dramasi edi. 3 parda 4 manzarali bu asar mazmunan sodda bo'lib, o'qimagan, johil va nodon bolaning o'z otasini o'ldirgani haqida edi. Behbudiy bu asar janrini "milliy fojia" deb atagan. Nashr qilishga chor senzurasini yo'l qo'ymaydi. "Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo'lishining 100 yillik yubileyi sanasiga bag'ishlanadi" degan vaj bilan Tiflis (Tbilisi) senzurasidan o'tkazadi. Drama 1913-yili bosilib chiqqan, ammo sahnaga qo'yish uchun yana bir yilcha vaqt ketadi. Asar Samarqandda 1914-yil 25-yanvarda sahnaga qo'yildi. Drama xalqqa kuchli ta'sir ko'rsatadi. Abdulla Qodiriy "Baxtsiz kuyov" dramasini shuning ta'sirida yozgani ma'lum. "Padarkush" ham janr, ham mazmuniga ko'ra yangi o'zbek adabiyotini boshlab bergan asar bo'ldi. Drama Toshkentda 1914-yil 27-fevralda Avloniy tomonidan qayta sahnalashtiriladi.⁷

Behbudiy birinchi o'zbek dramasini yozib va sahnalashtiribgina qolmay, "Tiyotr nadur?" ("Oyna" jurnali, 1914-yil 10-may, 29-son) maqolasini ham yozib,

⁵ Naim Karimov. Mahmudxo'ja Behbudiy. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – B. 28.

⁶ <https://jadid.uz/jadids/mahmudxoja-behbudiy/>

⁷ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi II-XII. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001. – B. 8.

<https://scientific-jl.com/>

unda ilk bor milliy o'zbek teatrining mohiyatini, uning xalq uchun, har bir inson uchun qanday ahamiyatga molik ekanini tushuntirib, bunday yozgan: "Tiyotr nimadur? Javobiga: tiyotr ibratnamo"dur. Tiyotr va'zxonadur, tiyotr ta'ziri adabiyadur. Tiyotr oynadurki, umumiy hollarni anda mujassam va namoyon suratda ko'zliklar ko'rub, kar va quloqsizlar eshitib asarlanur. Xulosa, tiyotr va'z va tanbih etguvchi hamda zararlik odat, urf va taomulni qabih va zararini aynan ko'rsatguvchidir. Hech kimni rioya qilmasdan to'g'ri so'ylaguvchi va ochiq haqiqatni bildirguvchidir"⁸.

Mahmudxo'ja Behbudiyning to'rt o'g'li va bir qizi bo'lgan. Mahmudxo'ja Behbudiyo'ldirilgach, bolalarga Qozi Haydarbek, Akobir va Abduvohid afandilar vasiylik qilganlar. Mahmudxo'ja Behbudiyning to'ng'ich o'g'li Ma'sudxon 1897-yili tug'ilgan va 2 yoshida vafot etgan. Geografiya ilmiga iqtidorli va qobiliyatli bo'lgan Maqsudxon (1910–1931) erta vafot etgan. 1914-yili tug'ilgan o'g'li Matlubxon Ikkinchi jahon urushida bedarak yo'qolgan. Qizi Parvin (Surayyo) (1902–1984) 82 yoshda vafot etgan. 1919-yili tug'ilgan o'g'li Shavkat 1990-yili vafot etgan.

Mahmudxo'ja Behbudiyo'ldirilganidan 1919-yili Favqulodda komissiya ayg'oqchilari yordamida Shahrisabz bekligida qo'lga olingan. Oradan taxminan ikki oy o'tgach, Qarshiga keltirib zindonga tashlangan. Bir necha kundan so'ng Qarshi begi Tog'aybekning buyrug'i bilan yordamchisi Nuriddinxo'ja Og'aliq Ahmadxo'ja o'g'li tomonidan zindon yaqinidagi "podsholik chorbog'i"da o'ldirilgan.⁹

Mahmudxo'ja Behbudiyo'ldirilganidan yozgan vasiyatnomasida, jumladan, shunday deb aytgan edi: "Biz o'z qismatimizni bilamiz.... agar bizning hayotimiz hurriyat va xalqning baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz...

Mumkin qadar ko'proq yaxshi maktablar ochish, shuningdek, maorif va xalq

⁸ Mahmudxo'ja Behbudiyo'ldirilganidan yozgan vasiyatnomasida, jumladan, shunday deb aytgan edi: "Biz o'z qismatimizni bilamiz.... agar bizning hayotimiz hurriyat va xalqning baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz...

⁹ <https://jadid.uz/jadids/mahmudxoja-behbudiyo/>
<https://scientific-jl.com/>

saodatini ta'minlash sohasida tinmay ishlash bizga eng yaxshi haykal bo'ladi"¹⁰.

Odatda, ulug' insonlar yorug' dunyoni tark etganlarida: "Ular xotirasi avlodlar qalbida abadiy saqlanadi", degan so'zlarni aytamiz. Bu so'zlar o'z vaqtida Behbudiy va uning safdoshlari sha'niga ham aytilgan. Behbudiy vafoti munosabati bilan o'nlab marsiyalar, maqolalar va xotiralar yozildi. Shulardan biri shoir va adabiyotshunos Vadud Mahmud qalamiga mansub bo'lib, unda quyidagi yurak so'zlari bitilgan edi:

"Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston degan o'lkaning boshlig'i edi. Mahmudxo'ja Turkistonning yo'l boshchisi edi. Mahmudxo'ja o'zining Turkiston bolasi ekanini tushungan bir yigit edi. Shuning uchun u bizga, Turkistonga har narsa edi... Mahmudxo'ja Turkistonning yangilik davri tarixida yorug' bir chirog' edi"¹¹.

Shuni ham aytish joizki, bobokalonimizning "Haq olinur, berilmas!" degan so'zlari jadidlarning shioriga aylandi.¹² Zamon va makon shamollari zoye qila olmas bu oltin haqiqat aslo o'zgarmaydi, zanglamaydi.

Behbudiy tabiiy va ijtimoiy fanlarni "aqli ilmlar" deb nomlagan. Xalqlar, mamlakat, islom tarixini bilmay turib, oddiy musulmon fuqarosidan tortib to davlat arbobi, ruhoniyy va ulamo, olim-u fuzalolargacha ma'rifatli bo'la olishi aslo mumkin emasligiga ishora qilib, shunday yozadi: "Dunyoga ishonmoq uchun, komil va odil bo'lmoq uchun tarixni o'qumoq va bilmoq kerak. Podsho-yu vazir, hukumat odamlari va siyosiy kishilar uchun tarix o'qumoq kerak. Dini islomning asli payg'ambar va sahobalarning islomiyat va ummat uchun jafo chekkan va mehnatlarini bilmoq uchun tarix o'qumoq kerak. Past qolgan va yo taraqqiy qilgan xalqlarni, jahongir bo'lgan davlat yo nopadid bo'lgan hukumatlarni bilmoq uchun tarix o'qumoq kerak..."¹³ Bu so'zlarni tasdiqlovchi, ta'kidlovchi o'laroq boshqa

¹⁰ D.Alimova, D.Rashidova. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. – Toshkent: Akademiya, 1999. – B. 2.

¹¹ Naim Karimov. Mahmudxo'ja Behbudiy. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – B. 76.

¹² Mahmudxo'ja Behbudiy – milliy uyg'onish harakatining asoschisi [Matn]: "Mahmudxo'ja Behbudiy va uning Turkistondagi milliy uyg'onish davri maorifi, adabiyoti va san'atining shakllanishi va rivojlanishidagi roli" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani materiallari 2019-yil 24-may. – Toshkent: COMPLEX PRINT, 2019. – B. 5.

¹³ Mahmudxo'ja Behbudiy diniy-ma'rifiy qarashlarining zamonaviy talqinlari [Matn]: konferensiya to'plami. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2021. – B. 16.

o'rinda Behbudiyning o'zi yana shunday deydi: "Moziy istiqbolning tarozisidir"¹⁴.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng boshqa ajdodlarimiz qatori buyuk ma'rifatparvar bobokalonimiz Mahmudxo'ja Behbudiya ham munosib ehtirom ko'rsatildi, nomi abadiylashtirildi. Jumladan, Samarqand shahrida Mahmudxo'ja Behbudiya yashagan xonadon uy-muzeyiga aylantirildi. Ba'zi ko'chalarga Behbudiya nomi berildi. Toshkent shahridagi "Adiblar xiyoboni"da haykal qo'yildi. Shuningdek, Prezidentimiz 2020-yil 30-sentabr kuni "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan ziyolilarga qilgan murojaatida jadidchilik harakati va uning yirik namoyandalari haqida to'xtalib, "Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiya, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug' insonlar milliy uyg'onish va millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turdilar. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, odamlarning dunyoqarashi va turmush tarzini o'zgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etdilar.

Ming afsuski, jadid bobolarimiz o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum yo'l bermadi. Ma'rifat fidoyilari o'sha davrning turli johil kimsalarining tuhmat-malomatlariga duchor bo'ldilar. Avval chor hukumati, keyinchalik sovet hukumati ularni ayovsiz quvg'in va qatag'on qildi. Shu tariqa milliy uyg'onish va taraqqiyot harakati el-yurtimiz uchun armon bo'lib qoldi.

Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo'lida jonini fido qilgan jadidlarning ilmiy-ma'rifiy, adabiy-badiiy merosi biz uchun bugun ham beqiyos ahamiyatga ega.

Birgina misolga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

¹⁴ D.Alimova, D.Rashidova. Mahmudxo'ja Behbudiya va uning tarixiy tafakkuri. – Toshkent: Akademiya, 1999. – B. 5.

Bu yil tavalludining 145 yilligi nishonlanayotgan ulug' ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy o'z vaqtida **“Biz uchun ikki emas, to'rt tilni bilish zarur”**, deb bong urgan edi. Behbudiy bobomizning ushbu da'vati hozir ham g'oyat dolzarb bo'lib turibdi.

Qadrli muallimlar, men bugun O'qituvchi va murabbiylar bayrami munosabati bilan bir guruh vatandoshlarimizni mukofotlash to'g'risidagi Farmonni imzoladim. Ana shunday yurtdoshlarimiz orasida Vatanimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, obod va farovon hayotini ta'minlash yo'lida fidokorlik ko'rsatib, milliy ta'lim va tarbiya tizimini yaratishga beqiyos hissa qo'shgan Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonov **“Buyuk xizmatlari uchun” ordeni** bilan taqdirlanganini sizlarga va butun elimizga mamnuniyat bilan aytmoqchiman”, dedilar.¹⁵

Jadid bobolarimizning fidokorligi, go'zal xulqi, ilm, ta'lim uchun naqadar jonfidoligi, buyuk o'rni haqida O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo bitgan ushbu satrlarida to'laqonli haq edi:

“Ta'lim-tarbiyani najot bilganlar,
Ilmiga o'zlari amal qilganlar.
Qarang, amal deb o'z jonin yulganlar,
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar”¹⁶.

Bu yanglig' ulkan ehtiromlar Mahmudxo'ja Behbudiy kabi buyuk bobolarimizga bo'lgan munosib hurmatning bir ko'rinishi hisoblanadi. Aytish joizki, faqat o'rganish bilan kifoyalanmay, ajdodlarimizga munosib avlod bo'lmoq, bu yo'ldagi mashaqqatlarga yelka tutib, yurtimiz ravnaqini, shon-u shavkatini, qutlug' nomini ko'klar uzra parvoz ettirmoq ayni biz yoshlarning vazifasidir. Dunyo tan bergan buyuk daholar kindik qoni tomgan bu tuproq hali asrlar qatida yana o'z qudratiga munosib bo'lmog'i bizdan talab etiladigan oliy maqsaddir. Zero, O'zbekistonning shonli kelajagi, ajdodlar merosi, ularning ehtiromini bajo etmoq, tarixiy buyuklikni tiklamoq – yoshlar qo'lida!

¹⁵ <https://president.uz/oz/lists/view/3864>

¹⁶ Tilda, fikrda, ishda birlik! [Matn]: kitob-albom / mas'ul muharrir: G'.Shermuhammad. – Toshkent: SAHHOF, 2024. – B. 17.

<https://scientific-jl.com/>

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar// To'plovchi, so'zboshi va izohlar: B.Qosimov – 3-nashri, tuzatilgan va to'ldirilgan. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006. – 280 b.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. II-XII. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001. – 703 b.
3. D.Alimova, D.Rashidova. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. – Toshkent: Akademiya, 1999. – 53 b.
4. Mahmudxo'ja Behbudiy – milliy uyg'onish harakatining asoschisi [Matn]: "Mahmudxo'ja Behbudiy va uning Turkistondagi milliy uyg'onish davri maorifi, adabiyoti va san'atining shakllanishi va rivojlanishidagi roli" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari 2019-yil 24-may. – Toshkent: COMPLEX PRINT, 2019. – 128 b.
5. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. J.I. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – 512 b.
6. Naim Karimov. Mahmudxo'ja Behbudiy. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 80 b.
7. Mahmudxo'ja Behbudiy diniy-ma'rifiy qarashlarining zamonaviy talqinlari [Matn]: konferensiya to'plami. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2021. – 272 b.
8. Tilda, fikrda, ishda birlik! [Matn]: kitob-albom / mas'ul muharrir: G'.Shermuhammad. – Toshkent: SAHHOF, 2024. – 368 b.

Internet saytlari:

1. <https://president.uz/oz/lists/view/3864>
2. <https://jadid.uz/jadids/mahmudxoja-behbudiy/>